

FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTINING BOSQICHLARI

Davronov Ziyot Davronovich.

F.f.d., professor.

Salimov Baxriddin Lutfullaevich.

TDTr.U dotsenti.

Qo‘chqorov Muhammadali Zaynidin o‘g‘li.

TDTr. *U talabasi.*

Annotatsiya: Insonlar faoliyatidagi sivilizatsiya kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan boshlab rivojlangan. Sivilizatsiya madaniyat so‘zining sinonimi sifatida ham talaffuz etiladi. Shu sababli sivilizatsiyani moddiy ishlab chiqarish bilan ham bog‘lash o‘rinlidir.

Kalit so‘zlar: Sivilizatsiya, madaniyat, munosabat, insoniyat, faoliyat.

Abstract: Civilization in human activity has developed since the emergence of personal society. Civilization is also pronounced as a synonym of culture. Therefore, it is appropriate to connect civilization with material production.

Key words: Civilization, culture, attitude, humanity, activity.

Insonlar faoliyatidagi sivilizatsiya kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan boshlab rivojlangan. Sivilizatsiya madaniyat so‘zining sinonimi sifatida ham talaffuz etiladi. Shu sababli sivilizatsiyani moddiy ishlab chiqarish bilan ham bog‘lash o‘rinlidir.

Dunyo mamlakatlaridagi turli o‘zgarishlar xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar jahon sivilizatsiyasini tashkil qiladi. Dunyodagi barcha xalqlar jahon sivilizatsiyasini taraqqiy qilishga o‘z hissasini qo‘sadi.

Ma'lumki, XX asrning oxirida insoniyat juda ko'p yangiliklarni kashf etdi. Bu kashfiyotlarni birorta xalq faoliyati bilan bog'lab, tor ma'noda tushunish noto'g'ridir. Har bir kashfiyotni minglab qirralari borki, bu qirralar qanday bo'lmasin u yoki bu xalq faoliyatiga taalluqli. Umumiy madaniyatni ko'tarishda Yevropa ham Osiyo ham, Afrika va Amerika xalqlari ham o'z hissalarini qo'shganlar. Umumjahon sivilizatsiyasiga turli dinlar ham o'z hissasini qo'shib kelayotir. Inson faoliyati ko'p qirrali bo'lganligi sababli madaniyatning ham qirralari beqiyosdir. Bu qirralar bir mamlakatda bir vaqtning o'zida rivojlanmaydi. U asta-sekinlik bilan uzoq davrlar ichida rivojlanadi. Shu asosda insonlarning dunyo qarashlari ham rivojlanadi, o'zgarib boradi. Sivilizatsiya rivojlanishi mintaqalarning rivojlanish darajasiga ham bog'liq. Har bir mintaqaning o'z tarixi bo'lib, shu tarix o'r ganilganda mintaqaga jahon madaniyatiga qanchalik hissa qo'shilganligini aniqlash mumkin. Mintaqalar madaniyati bir-biridan farq qilsada ularni mutlaqo ajratish mumkin emas. Sivilizatsiya jamiyatlar taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi.

_G'arbiy Yevropada fan va texnika ko‘proq taraqqiy qilib, ishlab chiqarish jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatadi. Natijada olimlar xulosa qila boshlaganlarki, jamiyatni, faqat inson aql idroki bilan yuksak darajaga ko‘tarishi va uni o‘zgartirishi mumkin ekan. Shu bois,

ma'rifatparvarlikka e'tiborni jiddiy qaratish payti kelib o'sha davrning ilg'or fikrlovchi kishilari ma'rifatni keskin holda targ'ib qilganlar. Binobarin, /arbiy Yevropa uchun «Ma'rifatparvarlik» so'zining o'zi ham yangi ibora bo'lib uni Volter, Gerder va boshqalar birinchi bor ilmiy muloqotga olib kirdilar. Shundan so'ng I.Kantning «Ma'rifatparvarlik nima?» (1784) maqolasi bosilib chiqdi va bu so'z keng tus ola boshladi. Ma'lumki, u davrlarda /arbiy Yevropada tabiat, jamiyat, tafakkur haqidagi ilmlar rivojlandi. Bu davrda Tomas Gobss, Dekart, Leybnis, Nyuton, Spinoza va boshqa yevropalik buyuk tabiatshunoslar va faylasuflar yetishib chiqib, turli fanlarda ayniqsa, fizika, kimyo, matematika, geometriya, mexanika, astronomiya sohalarida kashfiyotlar qildilarki, natijada bu kashfiyotlar ma'rifatprvarlikning kengayishiga olib keldi. O'z navbatida ma'rifatparvarlik Yevropadagi Renessans (uyg'onish) davri bilan ham uzviy aloqada bo'ldi. Ma'lumki, uyg'onish davri vakillari insonparvarlik g'oyalarini ilgari surgan edilar. Ularning fikricha kapitalistik rivojlanish feodalizmga nisbatan ustunroq bo'lib, inson faoliyatini faqat kapitalizm yangi pog'onaga ko'tarar edi. Shu sababli, uyg'onish davrining targ'ib qiluvchilari bilan ma'rifatparvarligi o'rtasida birmuncha farqlar bo'lib, ma'rifatparvarlar ko'proq uyg'onish davri tarafdarlarini tanqid qilib ham chiqdilar. Bu esa jamiyat va davlat tuzilishlarini qayta ko'rib chiqishga va ularni jiddiyroq hal qilishga olib kelar edi. Ular ma'rifatni iqtisodiy soha, xususiy mulkchilik, dunyoqarash, estetik qarashlar, badiiy jarayonlar, shaxs faoliyatları bilan bog'lab tushuntirdilar. Shu o'rinda Lokk, Gelvesiy, Didro, Jan Jak Russo va boshqa faylasuflarning yozgan asarlarini tilga olish kifoyadir.

Bu olimlar ta'lim va tarbiya to'g'risida umuminsoniy fikrlarni o'rtaga tashlash bilan birga, mazkur sohadagi yangi tamoyillarini ishlab chiqdilar. Shu bilan birga ular ko'proq ijtimoiy sohalarni targ'ib qiluvchi ma'rifatparvarlar bo'lib chiqdilar. O'sha davr sharoiti ma'rifatparvarlikning turli mamlakatlarda turlicha shakl va mazmunda namoyon bo'lishiga olib keldi. Shu bois Rossiyadagi ma'rifatparvarlikka nazar tashlaydigan bo'lsak, bu jarayonning guvohi bo'lamiz. Chunki Rossiya ma'rifatparvarlari burjua revolyusiyalarini ma'naviy jihatdan tayyorlash va amalga oshirish tarafdarlari edilar. Jumladan, Rossiya ma'rifatparvarligi (1760-1861 y.y) uzoq davom etib, uning asoschilari N.I.Novikov, D.I.Fonvizin, A. Ya. Polenov, va boshqalar edilar. Ular Rossiyada krepostnoylik tuzumini yo'q qilib tashlashni targ'ib qilganlar. Ana shu dalillarga asoslanib ko'pgina olimlar uyg'onish davrining vatani bu /arbiy Yevropa mamlakatlaridir, degan tor fikrni o'rtaga tashlaydilar.

«Evropasentrizm» deb ataluvchi oqimning faoliyatiga bir yoqlama baho berib, uni qo'llab-quvvatlaydilar. Ularning fikricha taraqqiyotning markazi ham Yevropadir. «Evrotsentrizm» oqimi rim-grek taraqqiyotidagi ma'naviy, markaziy «papachilik» deb yuritiluvchi katoliklar fikrlariga qarshi chiqish natijasida paydo bo'lgan bo'lib, ko'proq nemis faylasufi Georg Gegel (1770-1831) ta'limotida yaqqol ko'zga tashlanadi. Aslini olganda esa, ma'rifatparvarlikning ildizlari, bizning fikrimizcha (boshqa sohalarda bo'lgani singari) Sharq mamlakatlari, aynan O'rta Osiyo mamlakatlari donishmandlari faoliyatiga ham borib taqaladi. «Evropasentrizm»ning paydo bo'lishi

«Osiyosentrizm»ning keltirib chiqargan. «Osiyosentrizm» tarafidorlari «Evropasentrizm»ga qarshi chiqib «Evropasentrizm»ni salbiy tomonlarini olib tashlaganlar. Hatto, yevropalik olimlarning o'zlarini jumladan, Monteske, Gotfrid, Volterlar uyg'onish davri har bir millatga taalluqli va uni har bir millat rivojlantirishga qodir deb, chiqdilar. Umuminsoniy qadriyatlar barchaga taalluqli ekanligini targ'ib qildilar. Qadimgi Sharq mamlakatlarda, Osiyoda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun eradan oldingi davrlarda harakat boshlanganki, keyinchalik barcha sohada jumladan iqtisodiyotda, siyosatda, madaniyatda beqiyos o'zgarishlar bo'lgan. Buyuk ipak yo'lini Osiyo mamlakatlaridan boshlanganligi bejiz emas. Umuminsoniy ma'naviyat va madaniyatni rivojlanishiga Osiyo xalqlarining ta'siri bo'lganligiga shubha yo'q. Qadimgi Hindiston, Xitoydag'i fan, madaniyat, ma'rifat sohasidagi o'zgarishlar O'rta Osiyo taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir qilmay qolmagan. Natijada O'rta Osiyoda buyuk allomalar yetishib chiqdiki, ular ma'rifat sohasida, diniy e'tiqod hamda ma'naviy sohalarda dunyoda yetakchi o'rnlarni oldilar. Masalan, Vatandoshimiz Zamaxshariy «Jorulloh» degan (Alloh qo'shnisi) mo'tabar nomga sazovor bo'lgan. Undan avvalroq alloma Abu Nasr Forobiy esa Aristoteldan so'ng, «Ikkinchi muallim» degan faxriy nomni olganlar. Endilikda ma'lum bo'layotirki, o'rta asrlarda falsafiy fikrlarni va ma'rifatni targ'ib qiluvchilar aynan O'rta Osiyoda ko'p minglikni tashkil qilgan. Yaqin yillargacha, ming afsuslar bo'lsinki, biz ulardan xabardor bo'lmay keldik. Bularga misol: Yusuf Hamadoniy, Zamaxshariy, Abduxoliq /ijduvoniy, Imom al-Buxoriy, Hakim at-Termiziyy, Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahror Vali, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abu Mansur Moturudiy, Burxoniddin Marg'inoniy va boshqalar. Bu ulug' zotlarning har biri bitmas-tuganmas bilim jarayonlarini egallabgina qolmadilar, balki ilg'or g'oyalarni o'rtaga tashlab yuksak ma'naviyat va ma'rifatparvarlikni oldingi saflarida bordilar.

Demak, uyg'onish davri IX – XII asrlardayoq O'rta Osiyoda paydo bo'lgan. Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom ta'limotlari ham shundan dalolat beradi.

Sobiq sovet davlatining ba'zi bir «o'tkir» targ'ibotchilari esa mazkur buyuk shaxslarni, fan va taraqqiyot sohasidagi ishlarini faqat dinga taqab tanqid qildilar va ular faoliyatini (asl nusxada) o'rganishga yo'l qo'ymadilar. Sovet davridagi lug'atlarda, ensiklopediyalarda faqat fransuz, ingliz, rus olimlari to'g'risida fikr yuritildi, xolos. To'g'ri, jahon sivilizatsiyasi, madaniyati, ilm fanining rivojida Yevropalik allomalarning hissasi beqiyosdir. Ammo, har bir zamon va makonning o'z xususiyati, mavqeい bor. Shu sababli ham aytishga to'la asos borki, uyg'onish davri oldinroq O'rta Osiyoda paydo bo'lganligi haqidagi Osiyosentrizm tarafidorlarining fikrlari to'g'ridir.

REFERENCES:

1. Зиёд Давронов (2022). БИОЭТИКАНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ҲАҚИДА. Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference (1), 82-84.
2. Давронов, З. Д. (1990). Возможность и действительность. Фан.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) САНОАТ, ФАН-ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ТАБИАТ, ЖАМИЯТ ВА ИНСОНИЯТ ҲАЁТИ БИЛАН ДИАЛЕКТИК АЛОҚАДОРЛИГИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 351-358.
4. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) ЖАМИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛЛАШУВИДА БОШҚАРУВ ВА ТАРБИЯ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 359-365.
5. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
6. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Бирдамлик ва ҳамжиҳатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажагидир. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.